IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: KS46015648

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100095, Toshkent sh. 2-Chimboy ko‘chasi, 96-uy. Tel: (998) 71 246-01-95, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2022-yil 28 – fevral 2/24-4/1-468-son

Oliy ta’lim muassasalari rektorlari
va filiallar direktorlariga

*Nusxa:* O‘zbekiston Respublikasi
Tashqi ishlar vazirligi
*(ma’lumot uchun)*

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2022-yil 28-yanvardagi 08/2467-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasining Tokiodagi elchixonasi ma’lumotiga muvofiq, Yaponiyaning Yokohama Milliy universiteti *(Yokohama Natuional University)* tomonidan 2022-2023 o‘quv yiliga **doktorantura** dasturida tahsil olish uchun e’lon qilingan stipendiya tanlovi to‘g‘risidagi ma’lumot ilovada yuborilmoqda.

Berilgan ma’lumotga ko‘ra, mazkur stipendiya **Akademik martabani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha global doktorlik dasturi** *(Global Doctoral Program for Academic Career Support, GDACS)* bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasidan 2022-yil oktabr yoki 2023-yil aprel oylarida doktoranturaga kirish istagida bo‘lgan nomzodlar uchun taqdim etilishi ko‘zda tutilgan.

Dastur universitet o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, talabalarni kirish va o‘qish to‘lovlardan ozod qiladi va muvaffaqiyatli talabalar uchun oylik 100 ming yen *(taxminan 1 ming AQSh dollari)* stipendiyasi bilan ta’minlaydi.

Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar mustaqil ravishda Yaponiyaning Yokohama Milliy universiteti veb-saytida (https://www.ynu.ac.jp/english/admissions/scholarship/gdacs/) batafsil ma’lumotlar bilan tanishib, talabnomani to‘ldirishi va barcha tartiblardan on-line tarzda o‘tishi kerak. Ilmiy rahbarni aniqlash ham nomzodning zimmasidadir.

Ijr.: Xalqaro aloqalar boshqarmasi. Tel: 71 207 17 36, e-mail: xab@edu.uz
OO‘MTVda kirim raqami 4/1-468, 28.01.2022y.

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: KS46015648

Hujjatlarni quyidagi veb-saytdan yuklab olish mumkin:
https://www.ynu.ac.jp/english/admissions/scholarship/gdacs/ (ingliz tilida)
https://www.ynu.ac.jp/international/accept/academic.html (yapon tilida).

**Hujjat topshirishning oxirgi muddati** – 2022-yil 13-martgacha.

Ma'lumot uchun yuborilmoqda.

Ilova: 7 b.

Vazirning
birinchi o'rinbosari K. Karimov

Ijr.: Xalqaro aloqalar boshqarmasi. Tel: 71 207 17 36, e-mail: xab@edu.uz
OO'MTVda kirim raqami 4/1-468, 28.01.2022y.